

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHALARI HAQIDA VA ULARNI YUKSALTIRISH UCHUN KO'RILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Abdurahmanova Shahrizoda Ulug'bek qizi

TDYU huzuridagi M.S Vosiqova nomidagi

Akademik litsey 1.1-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari hamda ushbu tushunchalarning har bir shaxsda yuksak darajada bo'lishining ahamiyatlari, shuningdek, mamlakatimizda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va prezidentimiz farmonlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat va huquqiy ong, huquqiy tarbiya, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi", Adliya vazirligi, Huquqiy nigilizm.

Jamiyatda huquq mavjud ekan, **huquqiy madaniyat** ham, **huquqiy ong** ham mavjud bo'lishi kerak, shundagina ijtimoiy institutlarning holati sifatli bo'ladi. Bu jami ijtimoiy hayotning oddiy hodisasi emas, balki butun huquq tizimining rivojlanish darajasining o'ziga xos xususiyati va samaradorligining ko'rsatkichidir. Shuningdek, huquqiy ongi va madaniyati yuksak bo'lgan kishi deganda atrofdagilarni, o'zini va davlat organlarini huquqiy faoliyatini to'g'ri baholay olish qobiliyatiga ega bo'lgan hamda o'z huquq va manfaatlariga rioya etib, huquqini zarur hollarda talab qilish bilan birgalikda o'z majburiyatini vaqtida mas'uliyat bilan bajarib, ehtiyoj sezilganda o'ziga kerakli bo'lgan qonun, hujjatlarni anglab, qo'llab, saylovlarda va ijtimoiy hayotning muhim masalalarida hech kimning tazyiqsiz faol qatnashib, o'z fikrini bildirib, jamiyat rivoji uchun hissa qo'shishga intilib yashaydigan insonlar tushuniladi. Shunday insonlar ko'paygani sari jamiyatning fuqarolik jamiyatiga o'tish va huquqiy bilimsizlikni butunlay yengish jarayoni ancha tezlashadi. Chunki o'z huquqini bilgan kishi huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaydi va huquqini talab qila oladi, bu esa davlat organlariga kelib tushadigan shikoyatlarni, huquqbuzarliklarni kamaytirishga olib keladi, o'z huquqiy majburiyatlarini anglagan kishi oqibati nima bilan tugashini ham bilgani uchun jinoyat yoki zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri korrupsiyani sodir etish ehtimoli ham past bo'ladi. Ushbu afzalliklar jamiyatni farovonligini, tinchligini, totuvligini, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi ikki tomonlama mas'uliyatni ham mustahkamlaydi. Demak, huquqiy ong va madaniyat tushunchalari shunchalik ahamiyatli bo'ladigan bo'lsa, keling, ushbu tushunchalarga bir-birma ta'rif keltirib o'tamiz. Huquqiy ong haqida o'rganishdan oldin o'zi ong nimaligini bilib olishimiz zarur, chunki huquqiy ong ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Ong oddiy ruhiy in'ikosdan tashqari, faqatgina insonda vujudga kela oladigan

ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, konstruktiv tuzilishga ega bo'ladi. Uning ko'p turlari mavjud va huquqiy ong ulardan biridir. Huquqiy ongni estetik, diniy, siyosiy ongdan farqi uning kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga oid baholovchi g'oyalar, his-tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisiligidan iboratligidir. Huquqiy ongni bilish, baholash, modellash va g'oyaviy-tarbiyaviy funksiyalari mavjud, ushbu funksiyalari orqali amaldagi qonunchilikdan xabardor bo'lish, uni baholash, bashoratlash ya'ni huquq ijodkorligidagi muhim vosita sifatida foydalanish va tarbiyalash mumkin. Huquqiy ong ko'pincha g'oya va fikrlardan iborat bo'ladigan bo'lsa, huquqiy madaniyat huquqni bilish darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabat bildirish va hurmat qilish tushuniladi. Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish uchun huquq haqidagi dastlabki bilimlarni singdirib borish ya'ni **huquqiy tarbiya**dan foydalanish lozim, uning quyidagi usullari mavjud: huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot, o'z-o'zini tarbiyalash va huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari. So'nggi yillarda ham ushbu usullardan foydalanib huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirilish uchun ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, qarorlar qabul qilinmoqda. Chunki oldimizga qo'yilgan eng oliy maqsadlardan biri huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-maydagi 259-son qarori bilan 2022-2023 yillarda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar" dasturi tasdiqlandi. **Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoniga muvofiq "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati"** degan konseptual g'oya asosida tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilishni nazarda tutuvchi, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi quyidagilarni nazarda tutadi:

- Oilada va ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilash, jumladan:
- Oilalardagi notinchlik va zo'ravonlikning bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlarini haqida ma'lumot yetkazish va ularning oldini olish hamda ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ta'qib qilishga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Yoshlar o'rtasida **huquqiy nigilizm** ya'ni huquqni mensimaslik holatlarini bartaraf qilish, ularda huquqbuzarliklarning jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun

salbiy illat ekanligiga oid dunyoqarash shakllanishini targ'ib qilishga qaratilgan kompleks targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish;

- Mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga imtiyozlar va moddiy yordam berish, nafaqa tayinlash, ishsizlikdan himoyalanih, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash, ijtimoiy yordam olish tartibi bo'yicha tizimli targ'ibot tadbirlarini o'tkazish;
- Oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" o'quv kurslarini joriy etish;
- Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilash;
- Davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarning mehnat huquqi, huquqbuzarliklarning oldini olish, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" va "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"ni o'tkazish;
- Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilash;
- Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;
- Yuridik ta'limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko'p jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish va boshqa masalalar o'z aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon o'zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi o'zgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qo'yilmoqda. Bundan tashqari 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardagi " Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligi** jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqiy ong va madaniyat davlat farovonligi, tinch-totuvligiga, kelajagiga doimiy ta‘sir etib turuvchi omillar hisoblanadi. Ularni rivojlantirish orqali esa mamlakatimizning taraqqiyot yo‘liga ijobiy ta‘sir eta olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. A Saydullayevning “Davlat va Huquq nazariyasi” darsligi
2. <https://sudex.uz/?p=5564>